



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BOLALAR ADABIYOTIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

*Rajabova Noila Maxmadmuso qizi, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalar adabiyotining ahamiyati, uning o'quvchilarning tafakkuri, nutqi, axloqiy tarbiyasi va badiiy didini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek, bolalar adabiyotidan samarali foydalanish usullari tahlil qilinadi. Ilmiy-nazariy yondashuvlar hamda amaliy tajribalarga asoslanib, pedagogik faoliyatda bolalar adabiyotidan foydalanishning samarali yo'llari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** bolalar adabiyoti, boshlang'ich ta'lim, badiiy asar, kitobxonlik, tarbiya, nutqni rivojlantirish, didni shakllantirish.

## EFFECTIVE USE OF CHILDREN'S LITERATURE IN PRIMARY EDUCATION

*Rajabova Noila Maxmadmuso qizi  
University of Information Technologies and Management  
Student of Primary Education Department*

**Abstract.** This article discusses the importance of children's literature in the primary education process, its role in developing students' thinking, speech, moral upbringing, and aesthetic taste, as well as effective methods of using children's literature. Based on scientific-theoretical approaches and practical experiences, it highlights effective ways of integrating children's literature into pedagogical activities.

**Keywords:** children's literature, primary education, literary work, reading culture, upbringing, speech development, aesthetic taste formation.

### Introduction.



Boshlang‘ich ta’lim inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda bola shaxsining intellektual, axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan shakllanishi sodir bo‘ladi. Ushbu jarayonda bolalar adabiyotining o‘rni beqiyosdir. Bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asarlar nafaqat o‘qish malakalarini shakllantirish, balki o‘quvchilarda ijobiy fazilatlarni tarbiyalash, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazish vazifalarini ham bajaradi.

### Main part.

Bolalar adabiyotining boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni. Bolalar adabiyoti — bu bolaning yoshiga, psixologik holatiga va tafakkur darajasiga moslab yaratilgan badiiy asarlardir. Bu asarlar orqali bola hayot, tabiat, insoniylik, vatanparvarlik kabi tushunchalar bilan tanishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashi endigina shakllanayotgan davrda ular uchun mo‘ljallangan adabiy matnlar orqali ko‘p ma’naviy va axloqiy bilimlar berilishi mumkin.

Bolalar adabiyotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Nutqni va fikrlashni rivojlantirish;
- Axloqiy qadriyatlarni singdirish;
- O‘quvchilarda mustaqil fikrlash va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;
- Estetik didni oshirish.

Bolalar adabiyotidan samarali foydalanish yo‘llari. Boshlang‘ich sinfda bolalar adabiyotidan samarali foydalanish quyidagi metodik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi bular:

Badiiy asarlarni to‘g‘ri tanlash. Bolalar yoshiga mos bo‘lmagan asarlar ularning qiziqishini so‘ndirishga olib keladi. Shu bois har bir sinf bosqichi uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1–2-sinflar: ertaklar, qisqa she’rlar, topishmoqlar, masallar (misol: “Zumrad va Qimmat”, Cho‘lponning bolalarga oid she’rlari).

3–4-sinflar: hikoya, rivoyat, dostonlar qismlari, realistik voqealarga asoslangan asarlar (misol: G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari, Abdulla Qodiriyning qisqa hikoyalari).



Iborali va ifodali o‘qishga o‘rgatish. Asarlarni iborali o‘qitish orqali o‘quvchilarning tovush boyligi, talaffuz aniqligi va badiiy tafakkuri rivojlanadi. Matnni rollarga bo‘lib o‘qitish, dramatizatsiya qilish kabi usullar bu jarayonda samaralidir.

Bolalar yoshiga mos bo‘lmagan asarlar ularning qiziqishini so‘ndirishga olib keladi. Shu bois har bir sinf bosqichi uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1–2-sinflar: ertaklar, qisqa she’rlar, topishmoqlar, masallar (misol: “Zumrad va Qimmat”, Cho‘lponning bolalarga oid she’rlari).

3–4-sinflar: hikoya, rivoyat, dostonlar qismlari, realistik voqealarga asoslangan asarlar (misol: G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari, Abdulla Qodiriyning qisqa hikoyalari).

Asosiy g‘oyani tahlil qilish. Har bir o‘qilgan asardan keyin muhokama tashkil etish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga o‘rgatiladi. Bu esa tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Asardan keyin quyidagi savollar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mumkin:

Qahramonning qanday xatti-harakatlari sizga yoqdi?

Agar siz shu holatda bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lardingiz?

Bu asardan qanday xulosa chiqardingiz?

Illyustratsiyalardan foydalanish. Bolalar asarni o‘qibgina qolmasdan, uni ko‘z oldiga keltirishi uchun rasm va tasvirlardan foydalanish muhimdir. Bu orqali o‘quvchilarda tasavvur qilish qobiliyati oshadi. O‘quvchilar rollarga bo‘linib, asar mazmuni asosida sahna ko‘rinishlarini tayyorlaydilar. Bu:

- nutq madaniyatini rivojlantiradi;
- jamoaviy ishlash malakasini oshiradi;
- tasavvur va ijodiylikni faollashtiradi.

O‘yin elementlarini qo‘llash. Badiiy matnlar asosida didaktik o‘yinlar, viktorinalar, topishmoqlar va sahna ko‘rinishlari tashkil etish o‘quvchilarni kitobga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘quvchilar asarni o‘qigach, unda tasvirlangan manzara, voqeа yoki qahramonni chizadilar. Bu usul:

- bolalarning estetik didini rivojlantiradi;



- matnni chuqur tushunishga xizmat qiladi.

6. Yozma mashqlar bilan bog‘lash

O‘quvchilar o‘qigan asarlar asosida insho yozish, personajga maktub yozish, hikoya davomini to‘ldirish kabi topshiriqlar orqali yozma nutq malakalari rivojlanadi. Zamonaviy axborot vositalari orqali adabiy asarlarni o‘rganish samaradorligini ohrish mumkin:

- Audiokitoblar: eshitish orqali matnni qabul qilish.
- Videoertaklar: animatsion ko‘rinishda ko‘rish orqali tahlil.
- Multimediali taqdimotlar: asarni PPT slaydlar orqali tushuntirish.

Interaktiv testlar: matn asosida onlayn savol-javoblar tuzish.

Bolalar adabiyotining tarbiyaviy ahamiyati. Bolalar adabiyoti orqali o‘quvchilarda:

- vatanparvarlik (Vatan haqida hikoyalar);
- mehnatsevarlik (mehnatga oid ertaklar);
- insonparvarlik (mehr-oqibat mavzulari);
- adolat va halollik (axloqiy ertaklar) kabi fazilatlar shakllanadi.

Adabiyot vositasida tarbiya berish didaktik vosita sifatida yuqori samara beradi. Chunki bola badiiy asar qahramonining hayoti orqali to‘g‘ri xulosa chiqaradi va uni ongli ravishda o‘z hayotiga tadbiq etadi.

A.V. Zaporozhetsning asosiy g‘oyasida ilgari surilgan, bolalar adabiyoti bolaning psixologik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Zaporozhets bolalar adabiyotini bolaning hissiy olami va aqliy faoliyatini shakllantirish vositasi sifatida tahlil qilgan. L. S. Vygotskiy esa “Yaqin rivojlanish zonasasi” nazariyasiga ko‘ra, badiiy matnlar bolada mavjud bo‘lmagan ijtimoiy va axloqiy tajribalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Vygotskiy adabiyotni ijtimoiy ongni rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraydi. N. K. Krupskaya bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun sifatli bolalar adabiyoti asosiy vosita hisoblanadi. U o‘qituvchi va kutubxonachining hamkorligiga katta ahamiyat bergen.

O‘zbekiston Milliy Universiteti va Nizomiy nomidagi TDPU olimlari so‘nggi



yillarda adabiy o‘qish, bolalar psixologiyasi va ta’limda innovatsion metodlar bo‘yicha bir qancha ilmiy maqolalar e’lon qilindi. Ularda o‘qituvchilar uchun amaliy ko‘rsatmalar va metodik tavsiyalar berilgan.

### Conclusion

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalar adabiyotidan samarali foydalanish o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday asarlar bolalarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, badiiy-estetik didi va ifodali nutqini shakllantirishda o‘ta samaralidir. O‘qituvchilar badiiy adabiyotdan foydalanishda metodik yondashuvlarga asoslanib, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni o‘qishga, tahlilga va ijodiy ishlarga yo‘naltirishi zarur.

Ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar adabiyotidan foydalanishda dramatizatsiya, tasvirlash, ijodiy yozuv mashg‘ulotlari, interaktiv texnologiyalar kabi usullar yuqori samara beradi. Shuningdek, adabiy tanlovlari va kitobxonlik musobaqalari orqali o‘quvchilarda adabiyotga mehr uyg‘otiladi.

Shunday ekan, boshlang‘ich ta’limda bolalar adabiyotini keng va maqsadli qo‘llash, uni o‘quv-tarbiyaviy jarayonning asosiy komponenti sifatida shakllantirish — zamonaviy ta’lim oldidagi dolzARB vazifalardan biridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vygotskiy, L. S. (1982). Pedagogik psixologiya. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
2. Zaporozhets, A. V. (1979). Bola psixologiyasi. Moskva: Znaniye.
3. Krupskaya, N. K. (1955). Ta’lim va tarbiya masalalari. Moskva: Pedgiz.
4. Nurgaliyev, G. G. (2015). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy ongni shakllantirishda adabiyotning o‘rni. Qozog‘iston: Al-Farobiy nomidagi QozMU.
5. Yo‘ldoshev, X. (2017). Adabiyot va estetik tarbiya. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
6. Raxmonqulova, S. (2020). Boshlang‘ich ta’limda badiiy o‘qish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Mavlonova, R., Jo‘raeva, M. (2022). Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va metodikasi. Toshkent: Innovatsiya Ziyo.



8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2021). Adabiy o‘qish darsliklari (1–4-sinflar). Toshkent.
9. Saidahmedov, N. (2019). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
10. G‘afur G‘ulom. (2018). Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.